



2024 yil "25" mart

BUYRUQ № 94

Toshkent sh.

**Xalqaro akkreditatsiyadan o'tish  
uchun ariza topshirilgan ta'lif  
yo'naliishlarini ichki baholashdan  
o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldag'i "Ta'lif sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-54-son qarorining 8-band "v" kichik bandi hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lif sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 2-fevraldag'i PQ-54-son qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan Nazorat reja"ning 8.5-bandida 2024-2025-yillarda institutdagi ta'lif yo'naliishlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilishiga tayyorgarlik jarayoni tashkil etish maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 06-martdag'i 3/14-06/03-23-sonli xati ijro uchun qabul qilinsin.
2. Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi fakulteti dekani (Baltabaev U.N.) va Kimyoviy moddalar texnologiya fakulteti dekani (Buxorov Sh.B.)larga:

- fakultetdagi ta'lif yo'naliishlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilishi maqsadida "Ta'lif yo'naliishlari bo'yicha Ishchi guruhlari"ni tuzish;

- "Ishchi guruhlari"ga Xalqaro akkreditatsiyaga tayyorlanayotgan barcha ta'lif yo'naliishlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilishi maqsadida me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va ularni xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilishiga tayyorlash vazifasi yuklatilsin.

3. Ta'lif yo'naliishlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilishiga tayyorlash maqsadida 1-ilovaga muvoffiq ishchi guruh tarkibi tuzilsin.

3.1. Ishchi guruh a'zolariga:

- 2024 yil 15 aprelgacha fakultetdagi ta'lif yo'naliishlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish uchun ariza bergen institutning ta'lif yo'naliishlari uchun barcha o'quv me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, tahlil qilish va Ichki baholash komissiyasiga (bundan keyin Komissiya deb yuritiladi) taqdim etish:

- Ichki baholash komissiyasi tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish va Komissiya tomonidan tasdiqlangan hujjatlarni institutning WEB sahifasiga muntazam joylashtirib borish;

- Ta'lif yo'naliishlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tgunlarigacha WEB sahifani muntazam yangilab borish vazifasi yuklatilsin.

4. Ishchi guruh tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko'rish va ta'lif yo'naliishini ichki baholash maqsadida 2-ilovaga muvoffiq Ichki baholash komissiyasi tuzilsin.

Ichki baholash komissiya raisi, o'rnbosarlari va a'zolariga:

- ishchi guruh tomonidan taqdim etilgan o'quv me'yoriy hujjatlarni ko'rib chiqib, tahlil qilish, kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ishchi guruh a'zolariga maslahatlar berish;

- asoslari bilan taqdim etilgan hujjatlarni o'rganib chiqish va uni 3-ilovada keltirilgan tartibda baholashni tashkil etish;

- taqdim etilgan hujjatlar asosida 2024 yil 25 aprelgacha Komissiyaning ta'lif yo'naliishlari bo'yicha Ichki baholash hisobotini tayyorlash (Mas'ul: Komissiya raisi o'rnbosarlari, Xo'jamshukurov

N.A., Nurillaev Sh.F.).

- tayyorlangan Ichki baholash hisoboti asosida institutning aprel oyidagi **Institut Kengashida** hisobot berish vazifasi yuklatilsin (Mas’ul: Komissiya raisi, O’quv ishlari bo‘yicha prorektor Safarov T.T.).

- 2025-yil yanvarigacha **Ichki baholash komissiyasi va Ta’lim sifati nazorat qilish bo‘limiga** akkreditatsiyadan o’tkazuvchi tashkilot tomonidan so‘ralgan ta’lim dasturlarini Ichki baholash bo‘yicha tasdiqlangan hisobotlarni, ta’lim dasturlarini amalga oshirish bo‘yicha hujjatlarni taqdim etsin.

5. Fakultet dekanlariga (Yusupova L.A., Jalilov Sh.Q., Abdullayev U.K.):

- Oziq-ovqat maxsulotlari texnologiyasi va kimyoviy texnologiya talim yo‘nalishlarini xalqaro akkreditatsiyadan o’tkazilishi munosabati bilan institut fakultetlaridagi barcha kafedralar tegishli me’yoriy hujjatlarni tayyorlashga mas’ul ekanligi belgilansin hamda har bir kafedradan so‘ralgan hujjatlarni o‘z vaqtida sifatli tayyorlab berish uchun mas’ul tayinlansin va tayinlangan mas’ul to‘g‘risidagi ma’lumotlarni (Familiyasi, ismi-sharifi, telefon raqami) 2024 yil 1-aprelgacha bo‘lgan muddatda **Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limiga** taqdim etilsin.

- Xalqaro akkreditatsiyadan o‘tishga tavsiya etilgan ta’lim yo‘nalishlari uchun talab qilinadigan barcha kerakli me’yoriy hujjatlarni so‘ralgan shaklda tegishli kafedralarga, Ishchi guruh a’zolariga va Ichki baholash komissiyasiga o‘z vaqtida sifatli yetkazib berish vazifasi yuklatilsin.

6. Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limiga (To‘raev T.B.):

- Xalqaro akkreditatsiyadan o’tkazish uchun ta’lim dasturlarini tayyorlash bo‘yicha institut ishchi guruhi va tarkibiy bo‘linmalariga tashkiliy, uslubiy va maslahat yordamini ko‘rsatish;

- akkreditatsiya qiluvchi tashkilot uchun materiallarni tayyorlash jarayonida ta’lim dasturlari auditini o’tkazish va taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish;

- belgilangan muddatda so‘ralgan hujjatlarning to‘liq paketini 3-ilovaga muvoffiq taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

7. Barcha bo‘lim boshliqlariga (O’quv bo‘limi (Bo‘taev X.Sh), Inson resurslarini rivojlantirish bo‘limi (Sattorov S.Q), Ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi (Isamatova J.N.), Xalqaro reytinglar bilan ishslash va axborot-tahlil bo‘limi (Xidirqulova M.B), Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi (Mardonov N.R.), Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi (Xodjaeva N.)):

Ichki baholash va Ta’lim sifati nazorat qilish bo‘limi tomonidan talab etilgan xalqaro akkreditatsiyaga jalb etilgan ta’lim yo‘nalishlarini ekspertizadan o’tkazishda zarur bo‘lgan barcha me’yoriy hujjatlarni o‘z vaqtida yetkazib berish vazifasi yuklatilsin.

8. Korxonalar va ta’lim muassasalari bilan ishslash bo‘yicha prorektori (Shernaev A.N.) va tasarrufidagi bo‘limlarga:

- talabalar amaliyotining tashkil etilishi, mehnat bozoriga yo‘naltirilganlik, bitiruvchilarga bo‘lgan talab va bandligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘liq va o‘z vaqtida Komissiya a’zolariga taqdim qilish;

- Komissiyaning faoliyat olib borishi uchun zarur bo‘lgan barcha kompyuter texnikalari, internet tarmoqlari va kerakli barcha axborot-texnik ta’minot bilan ta’minalash vazifasi yuklatilsin.

9. O’quv ishlari bo‘yicha prorektori (Safarov T.T.) va tasarrufidagi bo‘limlarga, Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazi direktoriga (Mirzaqulov X.Ch), Inson resurslarini rivojlantirish bo‘limi (Sattorov S.Q) va ARM direktoriga (Onarova R.A.):

- Amaldagi asosiy va qo‘srimcha ta’lim dasturlari va ta’lim tarkibiy bo‘linmalari, talabalar tarkibi va soni, oliy o‘quv yurtiga qadar tayyorgarlik tizimi va abituriyentlarga qo‘yiladigan talablar, ta’lim dasturlari mazmunining sifati, qo‘srimcha kasbiy ta’lim tizimini tashkil etish hamda qo‘srimcha professional ta’lim natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z vaqtida berish;

- Ta’limda kadrlar faoliyatini, ilmiy-pedagogik xodimlar malakaviy tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, professor-o‘qituvchilar tarkibining malakasini oshirishni tashkil etish, o‘quv-uslubiy ishlarni tashkil etish va natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlari bilan ta’minalash;

- Attestatsiyaga tavsiya etilgan ta’lim yo‘nalishlari uchun o‘quv-auditoriyalarini va laboratoriya xonalarini talab darajasida tayyorlash, barcha fanlardan laboratoriya mashg‘ulotlarini o’tkazishni tashkil etish;

- o'quv-uslubiy ta'minotini, kutubxona-axborot ta'minotini baholashda kutubxona-axborot resurslarining mavjudligi to'g'risida, ta'lim oluvchilar va ilmiy-pedagogik xodimlarga mazkur ko'rsatilgan resurslardan foydalana olish imkoniyatini ta'minlanganligi to'g'risida, elektron ta'lim resurslarining mavjudligi va elektron axborot-ta'lim tizimlarining faoliyati to'g'risidagi ma'lumot asoslari bilan o'z vaqtida berish vazifasi yuklatilsin.

10. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori (Po'latov X.L.) va tasarrufidagi bo'limlarga:

- Asosiy ilmiy yo'nalishlar, olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning tuzilishi va hajmi, moliyalashtirish manbalari va ilmiy ishlanmalarining natijadorligi, ilmiy tadqiqot ishlarining tashkil etilishi to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etish;

- Tayanch doktorantura va doktoranturada ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash samaradorligi hamda ixtisoslik kengashlari faoliyati, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etilishi va natijadorligi tahlilini berish vazifasi yuklatilsin.

11. Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori (Babaxonova Z.A.) va tasarrufidagi bo'limlarga:

- Xalqaro hamkorlik shakllari va ularning natijalari haqida ma'lumotlar, xalqaro ta'lim va ilmiy dasturlarda ishtirok etish;

- xalqaro universitetlararo akademik almashinuvlar doirasida ilmiy-pedagogik xodimlar va talabalarning mobilligi (talabalarning xorijda ta'lim olishlari, ilmiy-pedagogik xodimlarning xorijda malaka oshirishlari, pedagog xodimlarning xorijdagi o'quv va ilmiy ishlari), xorijiy talabalarni o'qishlari va bilim olishlar uchun yaratilgan imkoniyatlар to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirgan holda berish vazifasi yuklatilsin.

12. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha birinchi prorektori (Boborajabov B.N.) va tasarrufidagi bo'limlarga:

- institutning maqsadi (missiyasi), strategik vazifalari va hisobot davridagi asosiy faoliyati va natijalari to'g'risida;

- institutda tarbiyaviy ishlarni tashkil etilishi, talabalar va pedagog xodimlarning xalqaro va respublikadagi ijtimoiy ahamiyatga molik tadbirdarda (fan va soha olimpiiadalarida, sport musobaqlarida) ishtirok etishi haqida ma'lumotlarini asoslari bilan berish vazifasi yuklatilsin.

13. Iqtisodiy va tashkiliy masalalar bo'yicha prorektor (Qodirov B.B.) va tasarrufidagi bo'limlarga:

- Institutning boshqaruvi tizimi va tuzilmasi haqida ma'lumotni;

- Umuman ta'lim tashkilotining moddiy-texnik bazasining holati va tegishli fakultet dekanlari bilan birgalikda kadrlar tayyorlash yo'nalishlari, o'quv-laboratoriya bazasining holati va rivojlanishi, jihozlanish darajasi tahlilini;

- Attestatsiyaga tavsiya etilgan ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv-auditoriyalarini va laboratoriya xonalarini zamon talabiga binoan jihozlash, ta'mirlash va ehtiyojga ko'ra yangi laboratoriya jihozlari (shisha idishlar, kimyoviy reagentlar va boshqa laboratoriya idishlar) bilan ta'minlash;

- institutdagi ijtimoiy-maishiy sharoitlarini mavjudligi: oziq-ovqat va tibbiy xizmatlar, yotoqxonalar va sport-sog'lomlashirish majmualari, shu jumladan nogironlar va imkoniyati cheklangan xodim hamda talabalar uchun yaratilgan imkoniyatlarning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni berish vazifalari yuklatilsin.

14. O'quv ishlari bo'yicha prorektori (Safarov T.T.) va Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i (To'raev T.B.)larga: buyruqda berilgan vazifalarni mas'ullar tomonidan bajarilishini nazorat qilish, ularni umumlashtirish va taxlil qilish hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni har dushanba kuni rektor huzuridagi majlisda hisobot berish vazifasi yuklatilsin.

15. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.



Rektor

B.Sh.Usmonov